

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI SHAKILLANTIRISH

Agzamxanova Gulchehra Rustam qizi

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)

3-kurs talabasi Chirchiq davlat Pedagogika universiteti.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o'qituvchilarning huquqiy savodxonlik masalalari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni rivojlantirish usul-vositalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar : huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, pedagoglar, kasb-hunar, ta'lim, pedagogika.

Jamiyat huquqiy bilimga ega, ijtimoiy jihatdan yetuk, erkin shaxsga muhtoj. Chunki jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bu esa o'z-o'zidan fuqarolarda huquqiy ongini shakllantirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan huquqiy normalarni qanday o'rgatish, ularni tushuntirish va amalga oshirish mexanizmlarini tizimli tartibga solishni takomillashtirishni talab etadi. Jamiyat rivojining muhim talablaridan biri — bu ijtimoiylashishga qodir, shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qiladigan, demokratik davlat va jamiyat qonun qoidalariga rioya qiladigan yosh avlodni tarbiyalashdir. Bu borada pedagoglarning o'rni juda katta.

Darhaqiqat, yosh avlodni huquqiy jihatdan bilimli, xalqparvar, eng yaxshi fazilatlarga ega, o'z xalqiga xizmat qila oladigan, davlat va jamiyat manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yib, ularni bajarishda yuksak saviyaga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash bugungi kundagi pedagoglarga chambarchas bo'g'liq. Bolalar har bir millatning, har bir davlatning kelajagidir, davlat va jamiyat kelajagi uchun bolalar hurmat muhitida ulg'ayishi va salbiy oqibatlardan aziyat chekmasligi juda muhim sanaladi, shuning uchun avvalam bor pedagoglar huquqiy savodxonligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bu borada mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi



Konvensiya talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan, va hozirgi kunda maktab va oliy ta'lim muassalarida O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi yangi strategiyasi, milliy g'oya va dinshunoslik kabi fanlari ta'lim tizimida joy olgan.

Darhaqiqat, bola dunyoga kelishi bilan uning huquq va erkinliklari qonunchiligimiz asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanib qo'yilgan. Bola huquqlari sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo'li bilan esa barcha bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish timizining samaradorligini oshirishning shart-sharoitlarni yaratib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksida pedagoglarga berilgan huquqlar:

1. har yilgi mehnat ta'tili o'quvchilarning yozgi ta'tili davrida beriladigan ta'lim tashkilotlarining o'qituvchilar tarkibiga va uslubiyotchilariga. Ushbu toifadagi xodimlarning ikkinchi va keyingi ish yillari uchun har yilgi mehnat ta'tiliga to'liq hajmda haq to'lanadi;
2. Har yilgi mehnat ta'tili o'quvchilarning yozgi ta'tili davrida beriladigan ta'lim tashkilotlarining o'qituvchilar tarkibiga birinchi ish yilidagi har yilgi mehnat ta'tili o'quvchilarning yozgi ta'tili davrida to'liq davomiylikda, ular ushbu ta'lim tashkilotiga ishga kirgan vaqtidan qat'i nazar, ishlab bergan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'langan holda beriladi. Mazkur toifadagi xodimlarga ikkinchi va keyingi ish yillari uchun beriladigan mehnat ta'tiliga, ushbu ta'til ish yili davomida qaysi vaqtda berilishidan qat'i nazar, to'liq haq to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida pedagoglarga berilgan huquqlar:

- O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Shu bilan birga, bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularning barkamol avlod bo'lib yetishishini ta'minlash borasidagi faoliyatning



institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish borasida bir qator qonunlar qabul qilinib, ularda bola huquqlari kafolatlanib qo'yilgan.

Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya 54 moddadan iborat bo'lib, ayni paytda bola huquqlarining xalqaro miqyosida himoyalanihiga xizmat qilib kelmoqda. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning O'zbekistonda ratifikatsiya qilinishi bola huquqlariga doir milliy qonunchilikni rivojlantirishning mukammal andozasi sifatida, dunyoning 193 davlati qatorida, bola huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga doir qator majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi. Buning natijasida, yosh avlodni huquqiy ongni shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratishning huquqiy, metodologik bazasi mustahkamlandi.

O'tgan yillar mobaynida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash, milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, borasida respublikamizda bir qator sezilarli ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda

fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolingani, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmagani, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi borasidagi ishlar tizimli amalga oshirilmaganligi tanqidiy ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, o'quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlik darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar, xususan:

- ta'lim tizimida o'quvchilarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmaganligi;
- ta'lim muassasalarida huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi shakllantirilmaganligi;



— shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash g‘oyalarini o‘quvchilar ongiga yetarli darajada singdirilishida pedagogik-psixologik manbalar yetarli emasligi;

— uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg‘un olib borilmayotganligi ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o‘zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlarini, milliy qadriyatlariga tayanilmayotganligi;

— huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmaganligi hamda ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmaganligi;

— yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari belgilanmaganligi;

— huquqiy tadbirlar hamon an’anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirilib kelinayotganli va bu borada targ‘ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayotganligi, huquqiy yo‘nalishdagi veb-saytlar yetarli emasligi;

— huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni rag‘batlantirishning huquqiy mexanizmlari mavjud emasligi, bu borada tadbirlar nomigagina tashkil etilayotganligi;

— o‘quvchilar huquqiy bilimlarni yuksaltirish bo‘yicha huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish, ilmiy izlanishlarni olib borish ishlari samarasiz amalga oshirilayotgani, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi” da ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish kerakligi, zamonaviy sharoitda, jamiyat rivoji uchun bola hatti-harakatlarida huquqiy ongni shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda va yoshlar siyosatining asosiy jihati sifatida baholanmoqda. Yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga doir ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslar ham takomillashtirilmoqda. “Milliy strategiya doirasida inson huquqlarini o‘qitishning



uzluksiz tizimini yaratish, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, kadrlarni qayta tayyorlash markazlarida "Inson huquqlari", "Bola huquqlari", "Ayollar huquqlari" nomli maxsus o'quv kurslarini joriy etishning vaqti-soati keldi". Bunday dolzarb vazifalarni butun jamiyat miqyosida olib borishda, "butun dunyoda murakkab va tahlikali vaziyat hukm surayotgan hozirgi vaqtda yoshlar hayotiga tahdid solayotgan xavf-xatarlarni oldini olish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" da oliy ta'limdagi fuqarolik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning o'rni yuqori hisoblanadi.

Oliy ta'limda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatga daxldorlik va mas'uliyatni mustahkamlash va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda jamiyat manfaatlari ustuvorligiga asoslangan pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etish samara beradi. Bu orqali yoshlarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik va fidoyilik sifatlarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning muhim asosi sifatida ularda shaxsiy manfaatdorlikni shakllantirish talab etiladi. Talaba bo'lajak kadr sifatida fuqarolik kompetensiyasini ko'rsatib berish orqali o'zining salohiyatini namoyon qilish bilan birga ijtimoiy manfaatdorlikni anglashi ham talab etiladi. Bugungi kunda barcha ijtimoiy munosabatlar manfaat asosiga qurilayotganligini anglash va shu asosda yoshlarda ijtimoiy faollikni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Zero, "hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o'zining manfaatlarini qandaydir yo'llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo'lsa, qonuniy yo'llar bilan o'z maqsadlariga erishishga intiladi" Shunday ekan, oliy ta'limda talabalar fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik jarayonni tashkil etish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning ishtirokchisi o'z o'rini topishga ham yordam beradi.

Hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Jahon miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar, savdo urushlari g'oyat keskin tus olmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda biz faqat xalqimizning aql-zakovati, bukilmas irodasi va salohiyati, o'z kuch va imkoniyatlarimizga tayanib, ayni vaqtda dunyo hamjamiyati bilan hamkor bo'lib, dadil oldinga borishimiz shart"



. O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, “oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish, oliy ta‘lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini” yaratish orqali bo‘lajak kadrlarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatdagi islohotlarni amalga oshiruvchi, mas‘uliyatli mutaxassis bo‘lib yetishishlarini ta‘minlash mumkin.

O‘zbekiston kadrlar tayyorlash tizimining asosiy tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta‘lim, fan va ishlab chiqarish tizimlari yaxlit ma‘rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-ma‘naviy hukmronligining uzviy mushtarakligidan tashkil topgan. Har qanday tizim samaradorligi mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan baholanadi. Uzluksiz ta‘lim jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining samaradorligini baholash jarayonida ko‘proq ijtimoiy afzalliklar namoyon bo‘ladi. Zero, tizimning hal qilish natijalari ta‘lim, tarbiya hamda ijtimoiy madaniyat darajasini yuksaltirish, tarbiyalanuvchilarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat samarasi sifatida namoyon bo‘ladi.

rasi sifatida namoyon bo‘ladi. Davlatimiz rahbari yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish zarurini quyidagicha asoslaydi: “Bugungi kunda dunyoda, yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda. Turli hududlarda qonli mojarolar, qurolli to‘qnashuvlar yuz bermoqda, yangi ziddiyat o‘choqlari yuzaga kelmoqda. Hozirgi vaqtda dunyoda “tinchlik” degan so‘z, “osoyishtalik” degan tushuncha g‘oyat omonat bo‘lib qolganiga, bu borada kechagi vaziyat, kechagi tahlil va prognozlar bugungi kunga to‘g‘ri kelmayotganiga hammamiz guvoh bo‘lib turibmiz” Jahonning rivojlangan davlatlari ta‘lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar va ularning ta‘lim metodikasi orqali talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, talabalarning huquqiy madaniyatini oshirish va siyosiy savodxonligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy fanlarni



o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishga doir masalalarni tahlil qilishga katta e'tibor qaratiladi.

Har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga mos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishga harakat qiladi. Doimiy yuksalish haqida qayg'uradigan yetakchi davlatlarning bu boradagi tajribasi bilan tanishish foydadan xoli emas. Shuning uchun yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda taraqqiy etgan davlatlar tajribasini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Uzoq Sharq mamlakatlaridan biri bo'lgan Yaponiyaning tarbiya berish usuli faqat pedagogik ta'lim berish majmui bo'libgina qolmay, fuqarolik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tarbiyadir. Mazkur mamlakatda bolalikdanoq ijtimoiy faollikka o'rgatiladi va hatto, ta'lim jarayonida ham ushbu yondashuv muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yaponlarning ta'lim-tarbiya metodikasida ijtimoiy faollik sifatleri bolalikdanoq jamoaviy o'yinlar, sport o'yinlari orqali singdiriladi. Yaponiya ta'lim-tarbiya tizimida mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Olimlarning fikricha, faol fuqarolik pozitsiyasini yoshlarda shakllantirishda yaponcha birdamlik misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarni olib keladi.

Har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga mos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishga harakat qiladi. Doimiy yuksalish haqida qayg'uradigan yetakchi davlatlarning bu boradagi tajribasi bilan tanishish foydadan xoli emas. Shuning uchun yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda taraqqiy etgan davlatlar tajribasini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Uzoq Sharq mamlakatlaridan biri bo'lgan Yaponiyaning tarbiya berish usuli faqat pedagogik ta'lim berish majmui bo'libgina qolmay, fuqarolik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tarbiyadir. Mazkur mamlakatda bolalikdanoq ijtimoiy faollikka o'rgatiladi va hatto, ta'lim jarayonida ham ushbu yondashuv muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yaponlarning ta'lim-tarbiya metodikasida ijtimoiy faollik sifatleri bolalikdanoq jamoaviy o'yinlar, sport o'yinlari orqali singdiriladi. Yaponiya ta'lim-tarbiya tizimida mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Olimlarning fikricha, faol fuqarolik pozitsiyasini yoshlarda shakllantirishda yaponcha birdamlik misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarni olib keladi.



Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimiga liberal qarashlar va demokratik boshqaruvning olib kirilishi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda yangicha yo'lni ochib berdi. Bugungi kunda ushbu mamlakatda ham milliy siyosat ta'sirida bo'lajak o'qituvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish, yagona vatan hissini uyg'otish, guruhbozlik, millatchilik, irqchilik va mahalliychilik kabi g'oyalarning kuchayib ketmasligi, jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun ta'lim tizimida ham fuqarolik madaniyatini, daxldorlik hissini, ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashni talab etmoqda. Bu davlatda yoshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi. AQShning fan va texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan o'zib ketganligining sababi shundaki, avvalo, bu davlatda erkin va ijodiy fikr qadrlanadi. Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina erishadi. Amerikancha liberal pedagogikada yoshlardagi fuqarolik pozitsiyasi ularning ehtiyoj va manfaatlariga bog'lanadi. Inson maqsadini amalga oshirishga intilishi motivatsiya, motivatsiya esa iqtisodiy stimullarni, ya'ni rag'batlantiruvchi kuchlarni yuzaga keltiradi. Shunday qilib, insonning xulq-atvorini, bir tomondan, tabiatdan berilgan qobiliyat, temperament, ikkinchi tomondan, ehtiyojlari va ularni qondirishning ob'ektiv zaruriyati belgilaydi va bir butun holda ijtimoiy faollikni va faol fuqarolik sifatlarini shakllantiradi.

Xalqaro ta'lim muammolari tahlil markazining xulosalariga ko'ra, yoshlarning ijtimoiy faolligi va ularda faol fuqarolik sifatleri ehtiyojlar, qiziqishlar va adolatli ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga chiqadi. Xullas, AQSh ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarda faol fuqarolik sifatlarini shakllantirishda ijtimoiy muhit ta'sirida va adolatli ijtimoiy siyosatni ta'minlash orqali ulardagi huquqiy va siyosiy bilimlarni o'stirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ularning fikricha, zarur bilimlarni egallash, olingan bilimlarni e'tiqodga aylantirish juda muhim. Demak, bo'lajak o'qituvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish zarur. Biroq ularning tarbiya metodikasi har bir xalqning milliy hususiyatlariga hamohang bo'lishi va axloqiy mezonlari o'xshashligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga oid bilimlarni oshirishda fanlar tizimining umumiy jihati xususida



emas, balki birgina tomoni – ijtimoiy gumanitar fanlarning rolini tadqiq etish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Faqat “ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Biz mamlakatimizda investitsiyalarni faqatgina iqtisodiyot tarmoqlariga emas, balki ilmiy ishlanmalar “nou-xau”lar sohasiga ham keng jalb qilishimiz kerak” [22;29]. Shu bois, bo’lajak o’qituvchilarda vatan taqdiriga mas’uliyatni, daxldorlik tuyg’usini shakllantirish, faol fuqarolik sifatlariga ega raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash masalalari ham dolzarblik kasb etmoqda. Shuning uchun ham, bo’lajak o’qituvchilarda fuqarolik madaniyati, huquqiy madaniyat va siyosiy saviya, ijtimoiy faollik oid bilimlarni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlardan samarali foydalanishning metodik asoslari, metodlari, ta’lim texnologiyalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq bo’ladi.

O’zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida tarbiyalanayotgan malakali kadrlar korpusning raqobotbardoshligini ta’minlash zaruratini ham yuzaga chiqarmoqda. Shuningdek, kadrlarda teran tafakkur va keng dunyoqarashni shakllantirish, ma’rifatli qilish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish, faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish mumkin bo’ladi. “Chunki insoniyatning ma’naviy qashshoqlashuvi jarayonida ma’naviyatni yemirishga xizmat qiladigan “demokratik qadriyat”larni rivojlantirishga intilgani sari insonning ma’naviy “men”ligi barbod bo’lmoqda. Agar bu jarayonga bugun e’tiborsizlik bilan qaralsa” ertaga yoshlarda vatanfurushlik, egoistlik sifatleri namoyon bo’la boshlaydi. Bunday sharoitda bo’lajak bakalavr va magistrilar uchun berilayotgan, ta’lim mazmuni, o’quv jarayonining jahon andozalari darajasida tashkil etilishi fuqarolik madaniyatini ham rivojlantirishga mos kelmog’i lozim. Shuning uchun ham oliy ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish bakalavrlar, magistrilar va bo’lajak mutaxassislarni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko’tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o’quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakl va usullari, yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llashni talab etadi.

Mamlakatning jadal rivoji, tayyorlanayotgan mutaxassislarning vatanparvarligi, faol fuqarolik pozitsiyasiga egaligi, ijtimoiy mas’uliyatni anglashi bilan bevosita bog’liq. Ushbu talabga muvofiq oliy ta’limdagi ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida muhim o’rin egallovchi sotsiologiya, O’zbekiston tarixi, milliy g’oya: O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, fuqarolik jamiyati, falsafa, dinshunoslik kabi fanlar



o'qitilishi bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy dunyoqarashni, siyosiy tafakkurni va fuqarolik kompetensiyasini shakllantiruvchi asos hisoblanadi. Xususan, huquqshunoslik fani turli qonun, farmon, qarorlarning, ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asosini tushuntirish orqali talabalarning xuquqiy bilimlarining oshishiga va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda oliy ta'limda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda jamiyatshunos olimlar tomonidan Harakatlar strategiyasi mazmun-mohiyati va uning fuqarolik jamiyati rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligiga bag'ishlangan ilmiy yo'nalishdagi maqolalar chop etilgan bo'lsa-da, ammo oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan maxsus darslik nashr etilmagan. Qolaversa, OTMlarning axborot resurs markazida bo'lajak bakalavrlarga mo'ljallangan darslik va o'quv qo'llanmalar soni yetarli emas. Ayniqsa, ushbu fanlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tomonidan nashrga tayyorlangan rus tilidagi o'quv adabiyotlari kamchilligi sezilmoqda.

Huquqiy, demokratik jamiyat zamonaviy odamdan yetarli darajada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni, o'z huquq va majburiyatlarini bilishni talab qiladi. Shuning uchun ham pedagoglarni jamiyatda huquqiy munosbatlar bo'yicha tajribaga ega bo'lmasdan amalga oshirish mumkin emas.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublkasi konstitutsiyasi. 1991 yil. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublkasi Oila kodeksi, 1991 yil. <https://lex.uz/docs/104720>
3. O'zbekiston Respublkasi mehnat kodeksi. Toshkent 1992. <https://lex.uz/uz/docs/6257288>.

